



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Yaxshiboyeva Nafisa Muxtorovna

Bulung'ur tumani 1-IDUM o'qituvchisi

TASVIRIY SAN'AT FANI DARSINI ORQALI O'QUVCHILARING QIZIQISHINI ANIQLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdagi tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarning psixologiyasini kashf etish, ularning ranglarga qiziqishini aniqlash orqali ularda ijodkorlikni, ijobiy xislatlarni shakllantirish mumkinligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, rang, Nyuton tajribasi, etti rang, inson psixologiyasi, nuqta, dog', doira, shakl

O'quvchilarga tasviriy san'at fani darsida rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirishda, albatta ranglarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ranglar haqida juda ko'p turli-tuman ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Bizning atrofimizdagi ranglar bizning his-tuyg'ularimizga va ruhiy holatingizga ta'sir qilishi mumkinligini bilamiz.

Aynan o'quvchi yoshlarda ham ranglarga bo'lgan munosabati orqali uning dunyoqarashini, qiziqishini aniqlab, shu asosda ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishimiz mumkin.

Rang - moddalar chiqargan va qaytargan nurlanish spektridir. Rangni birinchi bo'lib, ingliz fizigi Isaak Nyuton ilmiy jihatdan asoslab beradi. U uch oyoqli shisha olib, undan kichik teshikcha orqali tushayotgan nurni o'tkazib, tekislikka tushiradi. Tekislik sirtida qizil, sariq, zangori ranglar ko'rinadi. Bu ranglar orasida yana bir



necha (asosan uch rang) rang aralashmasidan hosil bo'layotgan qo'shimcha ranglar ham ko'rinadi.

Xalqaro kelishuvga muvofiq, Nyuton tajribasidagi ana shu asosiy uchta - qizil, sariq, zangori ranglarni tabiatdagi asosiy ranglar deb qabul qilinadi

Londonlik uslubchi va «Sizning uslubingizning rangi» kitobining muallifi Devid Zila shunday deydi: «Javoningiz turli rangdagi kiyimlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa ham, baribir, siz o'zingizga yoqqan, o'zingizni qulay his qiladigan rangdagi kiyimni boshqalaridan ko'proq kiyasiz. Aynan mana shu rang sizning xarakteringizni ochib beradi».

Har bir rang ma'lum bir predmetni, holatni va hodisani ifodalagan. Etti sayyora, dunyoning etti mo'jizasi, etti iqlim, haftaning etti kuni kabi quyosh nurining ham etti rangda jilolanishida o'ziga xos hikmat mavjud. Quyosh nurining etti rangda jilolanishi etti sayyoradan chiqayotgan nurlarning qorishmasidan iborat. Mirrix sayyorasining qizil, Zuxroning ko'k, Merkuriyning sariq, Kayvonning yashil, Mushtariyning qirmizi, Quyoshning qovoq rangi, Oyning binafsharangi birlashib, kamalak rangini hosil qiladi.

Inson ruhiy holatida bo'ladigan o'zgarishlar turli shakllarda, chunonchi: nuqta, dog', doira, shuningdek, turli ranglarda namoyon bo'ladi. Har bir shakl, har bir rangda ma'lum ma'no yashiringan bo'ladi. Xususan, doira – falakning aylanib turishini ifodalasa, dog' – dunyo timsolidir. Doira o'z-o'zi atrofida aylanib turgani uchun nuqta tomon uzluksiz intiladi. Shuning uchun ham, nuqta mohiyatini anglash orqali inson ilohiy olam mohiyatini idrok etadi.

Oq rang – Najmiddin Kubro nazariyasida poklanishni anglatadi. Murid poklik, mas'umlik va to'g'rilikni qo'lga kiritgandagina «tariqat» yo'liga kirishi mumkin.

Sariq rang – qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari nazdida quyosh nurlarining rangi, olov, oltin va boylik ramzi sifatida qaralgan.

Ko'k rang – osmon va dengiz rangidir. Bu rang insonning o'zi haqida tafakkur qilishi, o'ziga yaxshilik in'om etishi, oddiy hayot tarzidan — ma'naviy takomilga qadam qo'yishini bildiradi.

Zangori rang – bu rang yomon fikrlardan va yomon ishlardan qutilish holatini anglatib, halol ishlarni bajarishga o'tish ramzi bo'lgan.

Yashil rang – Kubro ta'limotida haqiqiy ishonch belgisidir.

Qizil rang – bir tomondan, u go'zallik, shodlik va sevgi ramzi bo'lsa, ikkinchi tomondan, u qasos, dushmanlik, urush, ma'nosini ham bildiradi.

Qora rang – zulmat ramzi, u ko'pgina xalqlar uchun baxtsizlik, g'am-anduh, motam va shunga o'xshash ma'nolarni bildiradi.

Rangsizlik – bu bo'shliq degani. Rangsizlik tushunchasi ranglar sirasiga kirmasa-da, Kubro nazariyasida alohida o'rin tutadi. Rangsizlik bu haqiqat demakdir. Inson rangsizlik orqali asta-sekinlik bilan ranglarga asoslangan ruhiy kechinmalarni bosib o'tib, ichki tuyg'ularini tobora sayqallab boradi.

Bugungi kunda inson psixologiyasiga ta'sir etuvchi omillar sirasiga kiruvchi ranglardan turli soha vakillar keng foydalanib keladilar.

Masalan, moviy rang ishonchli xabar, do'stona munosabatni ifodalagani bois o'zaro aloqalar jarayonida ushbu rangdan keng foydalaniladi. To'q ko'k rang esa,



inson diqqatini pasaytirib qiziqish holatining sustlashuviga olib keladi. Shu bois ham ko‘plab oilalarda o‘z farzandlarining qiziqishini, kayfiyatini ko‘tarish maqsadida vaqti-vaqti bilan xona ranglarini o‘zgartirib turishni maqsadga muvofiq deb biladilar. Ranglar o‘quvchilar psixologiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki o‘quvchilarning характери, qiziqishi, fel-atvori haqida qaysi rangni yaxshi ko‘rishiga yohud yomon ko‘rishiga qarab bilib olish mumkin.

Xulosa o‘rinida aytishimiz mumkinki, insonning ko‘zi doimiy ravishda nur va turli xildagi ranglarga intilib, talpinib yashaydi. U o‘zi yashayotgan muhitni ana shu ranglardan foydalanib o‘ziga moslashtirishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miraxmedov K. Tasviriy san‘at 2-sinf uchun darslik T.: “O‘zbekiston”, 2021
2. Oripov B. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi. — Ta‘lim Ziyο”, 2005
3. Abdirasilov S. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi. — Ta‘lim Ziyο”, 2011
4. Fikr.uz